

KREATIVLIK SIFATINI RIVOJLANTIRISHGA AN'ANAVIY YONDAASHUVLARNING TANQIDIY TAHLILI

Gazibekova Gulavza Ergashevna
Angren Universiteti o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ubshu maqola talabalar ijodiy tafakkurini rivojlantirish, hamda kreativlik sifatlarini tarkib toptirishdagi ilmiy tanqidiy masalalari va metodologik asoslari haqida fikrlar yuritilgan

Kalit so‘zlar: talaba, kreativ, ijodiy, tafakkur, mantiqiy tafakkut, psixodiagnostika.

Zamonaviy davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi begungi kunga kelib, ilmiy – texnikaviy taraqqiyotga bog‘liq bo‘lib qolgani, bu sohadagi ilg‘or o‘zgarishlarning esa, avvalo, mutaxassis kadrlarda ijodiy salohiyat shakllantirilishini taqozalashi tufayli kreativ qobiliyatlarni rivojlantirishning amaliy imkoniyatlarini aniqlash, bu maqsadga xizmat qiluvchi samarador pedagogik-psixologik texnologiyalarni ishlab chiqishga psixologiya fanidagi dolzarb muammolardan biri sifatida qaralmoqda. Mazkur yo‘nalishdagi ilmiy izlanishlarning natijalari katta ijtimoiy ahamiyatga ega ekani tadqiqotchilarni ijodiy tafakkurni, kreativ qobiliyatlarni rivojlantirish uchun mo‘ljallangan xilma-xil uslubiy yondashuvlar va maxsus metodikalarni ishlab chiqishga rahbatlantirilmoqda. Shu sababli bugungi kungacha turli kontseptual asoslar negizida uslubiy ishning xar xil shakllariga tayangan qator mualliflar tomonidan shaxs intellektual sohasida kreativlik sifatining darajasini oshirishga yordam beruvchi vosita sifatida xilma xil metodikalar ishlab chiqilgan.

Talabalik davrida ijodiy tafakkurni rivojlantirishning amaliy psixologik imkoniyatlarini aniqlashga va bu sohadagi ish samaradorligini oshirish uchun yordam berishi ko‘zda tutilgan yangicha mualliflik ishlanmalarini taqdim etishdan avval buy o‘nalishda hozirgacha psixokorreksion va rivojlantiruvchi ish amaliyotida to‘plangan ilg‘or tajribalarni tahqidiy tahlil etishni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Negaki, bunday yondashuv, birinchidan, mazkur sohada shakllangan yondashuvlarning umumiy chizgilari haqida tasavvurni aniqlashtirishda, ikkinchidan, ushbu yondasguvlardan bizning mualliflik takliflarimiz qanday jihatdan farqlanishini aniq tushunish va tushuntirish imkoniyatini kengaytiradi.

Ijodiy qibiliyatlarni, shu jumladan, talabalar ijodiy salohiyatini rivojlantirishning usullari sifatida bugungi kunda ko‘pgina mualliflar taklif etayotgan uslubiy echimlarda

kognitiv yondashuv ustvorligi seziladi. Ko‘pchilik mualliflar ijodiy tafakkurni rivojlantirishning samarali usullari sifatida kreativlik asosini tashkil etuvchi bilish jarayonlari (ijodiy hayol, tanqidiy tafakkur va h.) ni faollashtirishga mo‘ljallangan mashq va topshiriqlardan iborat metodikalarni taklif etadilar. Ma’lumotlarga ko‘ra kreativ tafakkurni rivojlantirish metodikasi zamonaviy psixologiyada birinchilardan bo‘lib, R.Krachfild tomonidan ishlab chiqilgan. Uning metodik yondashuvi ijodiy qobiliyatlar ma’lum ijodiy topshiriqlarni bajarish davomida rivojlanishi haqidagi tasavvurga asoslanadi. R.Krachfild metodikasida o‘quvchilarga ikki o‘smir bolaning sarguzashtlari haqidagi hikoyalar taqdim etilib, ulardagi izquvarlik mazmunidagi voqealar bilan bog‘liq bo‘lgan turli vaziyatlarning sabab va oqibatlari yuzasidan farazlar ilgari surish taklif qilinadi.

E.P.Torrens ijodiy tafakkurni rivojlantirishning bir necha bos qichli texnologiyasi taklif etiladi.Unga ko‘ra, dastlabki bosqichda trening ishtirokchisiga turli vaziyatlar tasvirlangan suratlar ko‘rsatilib, undagi holatga olib kelgan barcha odatiy va noodatiy sabablar, uning natijasida ro‘y berishi ehtimol tutiladigan xilma xil oqibatlar xususida mulohaza yuritishga, ikkinchi bosqichda esa turli buyumlarni o‘zining asl vazifasidan tashqari qanday maqsadlarda ishlatilishi mumkinligi yuzasidan fikrlashga undaydigan topshiriq beriladi.

Kreativlik qobiliyatini rivojlantirish vositasi sifatida qator mualliflar turli materilalar asosida ijodiy hayolni mashq qildirishga mo‘ljallangan metodikalarni taklif etadilar. Jumladan, E.P.Rogovning amaliy qo‘llanmalarida taklif etilgan, guruhiy shaklda o‘tkazilishi ko‘zda tutilgan mashqlarda, masalan, trening ishtirokchilaridan biri qandaydir fantastic vaziyatli savol (masalan, “Agar odamlar bir birining fikrini o‘qiy oladigan bo‘lib qolganda.erdagi hayotda qanday o‘zgarishlar ro‘y berae edi?”) ni o‘rtaga tashlash, guruhning qolgan a’zolariga o‘zlarining imkon qadar rang barang shakllantirish vazifasi berilishi mumkin.

Ijod psixologiyasi muammolarini o‘rganishda o‘z ilmiy maktabini yaratgan sohaning etakchi mutaxassislaridan biri Ya.A.Ponomarev ham tafakkur kreativligini rivojlantirishning metodik imkoniyatlarini aniqlash yo‘nalishida o‘z yondashuviga ega.Xususan, olimning tadqiqotlarida to‘qqiz katakli shaxmat doskasining turli qismlarida joylashtirilgan ot bilan o‘yin qoidalarini buzmagan holda boshqa bir katakka qo‘ylgan piyodani olishga qaratilgan harakatlarni aniqlash mashqidan ham diagnostik, ham rivojlantiruvchi maqsadida foydalanish holatlari qayd etiladi.

B.Kleg tomonidan ijodiy tafakkurni rivojlantirish bo‘yicha o‘ziga xos intensive kurs ishlab chiqilgan bo‘lib, uning asosini odatiy sharoitda ko‘rsatilgan birlikda uchramaydigan narsa-hodisalar qanday assotsiativ bog‘lanishlarni uyg‘otishi haqida o‘ylantirib, qo‘yishga mo‘ljallangan topshiriqlar tashkil etadi.Muallif tavsiya etgan kurs nafaqat tafakkurni rivojlantiruvchi mashqlar balki, maxzuz trening dasturi sifatida

guruh a'zolari o'rtasida ochiq, erkin munosabatlar o'rnatilishi, guruhda ishchan muhit saqlanib turishi kabi kreativ qobiliyatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan amaliy ishga qulay psixologik sharoit vujudga keltirishi uchun ahamiyatli mashg'ulotlarni ham o'z ichiga olishi lohida e'tiborga loyiq.Ijodiy tafakkurni rivojlantirish, nostandart fikrlashga o'rganishning metodik asoslarini ishlab chiqish sohasida dunyo miyisosida tanilgan mutaxassis E.de Bono samarali usul sifatida :"provakatsion g'oya: metodikasi- bir qarashda aql bovar qilmaydigan, mantiqsiz fikrni ilgari surib, uni baholashdan qochib, rivojlantirishni davom ettirish yo'lini taklif etadi. Muallif fikricha, "profakatsion" g'oyalarning baholanishiga yo'l qo'yilsa, tafakkur ularni tajribada mavjud shablonlarga nomuvofiqligi sababli darhol inkor etadi.Ijodiy tafakkur rivojlanishi uchun esa bunday fikrlarga baho berish, ularning shaxsiy tajriba chegaralariga qanchalik sig'ishini aniqlash o'rniga ushbu g'oyalardan kelib chiquvchi keying yangi fikrlarga o'tilishiga erishish zarur.G'yritabiiy fikrlarni yangi g'oyalarga o'tish jarayoni E.de Bono talqinida ushbu mantiqsiz fikrlardan qandaydir foydali yechim toppish, biror mantiqiy jihatdan o'rinli xulosaga kelishdan iborat bo'ladi.E.de Bono o'zining uslubiy yondashuvida "aqliy hujum" metodikasining yaqqol kamchiliklaridan biriga yo'l qo'yilmasligiga e'tibor qaratiladi.

Yuqoridaq qisqacha tahlildan ko'rinib turganidek, tafakkur kreativligini rivojlantirish ko'zda tutilgan metodik vositalarning aksariyati odamdan ijodiy yondashuvni talab qiluvchi topshiriqlardan iboratdir. Demak , metodologik yondashuvlarga ko'ra, talabalarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish ishining samaradorligi uchun ularning shaxsi sohasida ham muayyan yo'nalishdagi o'zgarishlarni hosil qilishga qaratilgan chora-tadbirlar ushbi ish tizimidan o'rin egallashi maqsadga muvofiq.Bunda nazarimizda, tashqi faol ta'sir uchun talaba shaxsi strukturasining shunday sohasi va tarkibiy qismi tanlab olinishi kerakki, uning birinchidan, ham kognitiv jarayonlatr bilan, ham shaxsi individual-psixologik xususiyatlari bilan kuchli aloqasi, ikkinchidan, ijodiy faoliyotda muhim ahamiyati qayd etilsin.Talabaga psixologik adabiyotlarda "intelektual hissiyotlar", :intelektual emotsiyalar","affektiv-kognitiv komplekslar" degan turli nomlar bilan ataladigan psixik fenomen javob beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

- 1.Ilin E.P. Psixologiya tvorchestva, kreativnosti odarennosti.-SPb Piter, 2009
- 2.Chugunova E.S.Sotsialno-psixologicheskie osobennosti tvorcheskoy aktivnosti injenerov.-L,LGU,1986
- 3.Nishonova Z.T. Psixokorreksiya.T-2006